

HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

qo'lyozma huquqida
UO'K: 336.2:6P2.15.7:338(575.1)

NASIMDJANOV YUNUSJON ZOVIDOVICH

**RESURSLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSYERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.d. U.X. Normurzayev

Toshkent – 2025-yil



MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	14
1.1-§. Resurslarni soliqqa tortishning nazariy asoslari.....	14
1.2-§. Resurslarni soliqqa tortishga oid tadqiqotlarning nazariy tahlili.....	27
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	39
II BOB. RESURSLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	41
2.1-§. Yer solig'ini undirish mexanizmining tahlili.....	41
2.2-§. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq elementlarining tahlili.....	57
2.3-§. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mexanizmlarining tahlili.....	74
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	88
III BOB. RESURSLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALALARI	90
3.1-§. Resurslarni soliqqa tortish amaliyotining xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularning milliy soliq tizimida qo'llash masalalari.....	90
3.2-§. O'zbekiston soliq tizimida resurslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish masalalari.....	100
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	115
XULOSA	118
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	124
ILOVALAR	

KIRISH

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida resurslarni soliqqa tortish jarayonida mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda soliqqa tortish maqsadlarini yoki davlatning iqtisodiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib soliq siyosatining taktik yo‘nalishlarini belgilab olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, “AQShda iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida mamlakat ichidagi mavjud tabiiy resurslardan “kelajak avlodning ulushini saqlab qolish” tamoyiliga asoslanib, boshqa soliqlar singari resurs soliqlarini soliqqa tortish masalalari hal qilinadi. Rossiyada esa, mamlakatning davlat byudjetining asosiy qismini tabiiy resurslar, asosan neft va gaz mahsulotlarini soliqqa tortish ustuvorlik siyosati esa, boshqa yo‘nalishdagi iqtisodiy siyosatning yo‘nalishlarini belgilashda muhim omil sifatida qaraladi”¹. Bundan ko‘rinadiki, jahon miqyosida resurslarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning yirik ilmiy markazlari va ko‘pgina olimlar tomonidan resurslarni soliqqa tortish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlariga keng ustuvorlik berilmoqda. Tabiiy resurslarni samarali foydalanishini ta‘minlovchi va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan soliq tizimlarini yaratish, iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanish darajasini tahlil qilish asosida soliq stavkalarining moslashuvchanligini oshirish, resurslardan foydalanish va soliqqa tortish masalalari bo‘yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish, soliqqa tortish tizimining shaffofligini ta‘minlovchi mexanizmlar va indikatorlarni ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali resurslarni saqlash va boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratish, soliq ma‘muriyatchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

¹ <https://www.worldbank.org/en/about/annual-report> (2022).